

KUZATUVCHINING MATNDAGI O'RNI, KOGNITIV NUQTAI NAZARDAN
TAHLIL QILISH ("TO SEE" FE'LI MISOLIDA)

Davurova Umida Jo'raqul qizi

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kuzatuvchining tilshunoslikdagi ahamiyati, uning kognitiv tahlili, pragmatlingvistika va diskurs – muloqotning bog'liqligi, ingliz tilidagi "to see" "ko'rmoq" ma'noli fe'llarning qiyosiy tahlili ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kuzatuvchi, ong subyekt, qabul qiluvchi subyekt, narrativlik, egosentrik elementlar, sinxronlik, passiv kuzatuvchi, informator.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение наблюдателя в языкознании, его когнитивный анализ, взаимосвязь прагматингвистики и дискурса-коммуникации, а также сравнительный анализ английских глаголов to see.

Ключевые слова: наблюдатель, субъект сознания, субъект получателя, нарратив, эгоцентрические элементы, синхронистичность, пассивный наблюдатель, информативность.

Annotation: This article discusses the importance of the observer in linguistics, its cognitive analysis, the relationship between pragma linguistics and discourse - communication, and the comparative analysis of the English verbs "to see" are considered.

Keywords: observer, subject of consciousness, subject of receiver, narrative, egocentric particulars, synchronicity, passive observer, informatory.

Zamonaviy tilshunoslikda, fe'l semantikasini tadqiq etish kognitiv yondashuv orqali til o'rganishdagi yangi yondasahuvlarni yuzaga keltirdi. Mazkur yondashuvlardan biri, bu til hodisalarini, so'z, konseptlarni va ularning kategoriyalarini aniqlashda observer (kuzatuvchi) figurasi semantikasining mavjudligi hisoblanadi [1,58]. Fe'l semantikasini tasvirlashda inson (shaxs), jonsiz predmet, hodisa va boshqa ko'plab taksonomik sinflar alohida o'rin tutadi [2,92]. Agarda fe'l ma'nosi biror bir taksonomik sinf a'zosini talab qilsa, u holda taksonomik sinf a'zosi fe'l semantikasining o'zgarishiga ham olib kelishi mumkin. Misol uchun "ko'rmoq" fe'lida persept material obyektga (*I see a book on the table*) va shuningdek vaziyatga (*he saw her coming*) tegishli bo'lishi mumkin. Ammo barcha lug'atlar mazkur kontekst uchun bir xil ma'noni berishadi. Kontekstdagi biror komponentning o'zgarishi yoki qo'shilishi yangicha ma'noni yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun *again* ravishining qo'shilishi harakatga qayta kirishish ma'nosini yuzaga keltirsa, *often* ravishining qo'llanilishi holatning takrorlanishini, ya'ni iterativlikni hosil qiladi.

Turli sathdagi til birliklarining o'zaro birikuvi fe'l semantikasidagi ma'nolarning sistemalashuviga olib keladi. Buning natijasida fe'l ma'nosi leksik birlikning turi, uning sintaktik boshlanishi, leksik-semantik aloqasi, grammatik shaklning ta'siri natijasida o'zgarib boradi.

Ingliz tilidagi birgina *to see* fe'li bilan ifodalanadigan "ko'rish" ma'nosining derivatsiya ta'sirida ikki xil turi yuzaga keladi. Mazkur so'zlar *foresee* va *unseen* hisoblanadi.

Bundan tashqari *to see* fe'lining quyidagi ma'no turlari mavjudligi aniqlandi:

- Ko'rish qobiliyati: *I saw a book*
- Uchratmoq, tashrif buyurmoq: *See a doctor about your cough*
- Tushunmoq: *He saw what I meant*
- Tasavvur qilmoq: *Can you see yourself as a teacher?*
- ...deb hisoblamog: *I wil see what can be done*
- Ishonch hosil qilmoq: *See what the windows are shut*
- Bilmoq, kashf qilmoq: *See who is at the door* [3,636].

Odatda inson ongida, tasavvurida paydo bo'ladigan birinchi tushuncha yoki tassavvur bevosita ko'rish orqali amalga oshadi. Faqat shundan keyingina biror bir obyekt, predmet to'g'risidagi bilim jamlana boshlaydi. Natijada bilim, fikr, xulosa, tasavvur, anglash va shu kabi tushunchaviy konseptlar yuzaga keladi. Mazkur konseptlar odatda fe'l harakati yo'naltirilgan otlar (mavhum, turdosh) munosabatlari, ya'ni birikuvi orqali ifoda planiga ko'chadi. Ushbu konseptlarning ifodalanishi hissiy qabul qilishni anglatadigan fe'llar orqali amalga oshiriladi.

Hissiy sezish guruhi fe'llari o'zlarining aktant strukturasiida farqlanadi. Jumladan, *to see* fe'lini oladigan bo'lsak, mazkur fe'l gapdagi stimul va obraz o'rtasida yuzaga keladigan munosabat va aloqani bog'laydi. Ushbu fe'lning bosh, denotativ ma'nosi vositasiz to'ldiruvchini olsa, o'sha to'ldiruvchi stimulni, hamda obrazni anglatadi. Masalan: *I see Kate*. Ammo ko'chma, yasama ma'nolarda *to see* fe'li shaxsning, kuzatuvchining, narratoring fikri sifatida qaraladi. Mazkur holda stimul va obraz tarqalishi mumkin, ya'ni ushbu a'zolarning har biri o'z sintaktik pozitsiyasiga ega bo'lishi mumkin.

Hye had seen enough of him at Lossie House to know what he was.

Ko'rmoq fe'lini kognitiv nuqtai nazarda talqin qiladigan bo'lsak, kuzatuvchi informator vazifasini bajaradi. O'sha ko'rish orqali inson ongida ko'rilgan obekt (yoki shaxs, voqea, hodisa) to'g'risidagi tasavvur paydo bo'ladi. Masalan: "*As he shut the door he saw Old Anderson with all his clothes on, lying on the bed looking at the wall.*"

Shaxs yoki subyekt ongida harakat yo'naltirilgan obyekt to'g'risida biror tasavvurga ega bo'lish semantikasi yuzaga keladi. Masalan: "*You'll just ride her to Forres market next week and see what you can get for her.*"

Ko'rish orqali bilimga ega bo'lish. Oldingi tasavurni haqiqiy jonlantirish ma'nosi ko'zga tashlanadi. Masalan:

"If I see you about the place after sunset, I'll horsewhip you," said the factor and walked away.

Subyekt to'g'risidagi birinchi yoki boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lish semantikasi hosil bo'ladi. Masalan: *So when I saw you coming up the dune, I just felt I had to tell you.*

Subyekt tasavvuridagi ma'lumotning haqqoniyligi to'g'risidagi bilimning informatsiyasi ko'zga tashlanadi. Masalan:

...it's doubtful Malcolm would have ever seen the need the identity himself as the marquis.

Maqsad natijasida yuzaga keladigan birinchi ma'lumot. Mazkur hol faqatgina to see fe'lining semantikasi yordamidagina emas, balki ushbu fe'lining grammatik pozitsiyasi, ya'ni infinitiv shaklida maqsad holida qo'llanilishi natijasida amalga oshadi. Masalan:

The decending darkness made it too dark for Malcolm to see the keyen look of wistful regret with which Lizza tried to pierce thye gloom and read his face.

Subyekt tasavvurida mavjud bo'lgan obyekt(shaxs)ning qay darajada aks etishi va ushbu obyekt to'g'risidagi bilim borasidagi ma'lumotni keltirilishi kabi semantik ma'no, kognitiv bilim ifodalanadi. Masalan:

"And it can't be that I should ever forget the faye you showed me in the coffin-the prettiest, saddest face I ever saw" returned Malcolm with a quaver in his voice.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Апресян Ю. Д. Системообразующие смыслы 'знать' и 'считать' в русском языке. Русский язык в научном освещении. Москва 2001. №1. С 5-51.
2. Падучева Е.В. О параметрах лексического значения глагола: таксономический класс участника /Русский язык в научном освещении.№ 1(3).с 87-112.
3. Хокинс Дж. М The Oxford Dictionary of the English Language.-М.: АСТ: Астрель, 2007.-828с